

## “SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ANTROPONIMLAR VA ETNONIMLAR SEMANTIKASI.

Boymurodova E'tiborxon Ismoiljon qizi  
Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili  
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XVII asrda yaratilgan Abulg'oz Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida keltirilgan onomastik birliklar, antroponimlar va etnonimlar qisman tahlil qilingan, bir nechta ma'noviy guruhlarga ajratilgan. O'g'uz xalqlariga oid ismlar, laqablar va qabila nomlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Abulg'oz Bahodirxon, “Shajarayi turk”, onomastika, antroponim, etnonim, farishtalar nomlari, payg'ambarlar ismlari, o'g'uz xonlarining ismlari, qabila nomlarining kelib chiqishi.

Yurtimizda so'nggi yillarda tarixiy asarlarni chuqur o'rganish, ularni har tomondan tahlil qilishga katta e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda “tarixni anglamay turib kelajak qurib bo'lmaydi” deyishganidek, tarixiy asarlarni o'rganish, ularni tahlil qilish va oddiy xalq tushunadigan xolda tahrir qilib nashr etish kabi bir qancha vazifalar bor. Yuqorida ta'kidlanganidek tarixiy asarlarni o'rganish ularni leksik, semantik, grammatik va shu jumladan onomastik jihatdan tahlil qilish orqali o'zbek tilining tarixiy rivojlanish bosqichlari, leksik qatlami, fonetik, leksik, semantik o'zgarishlar, arxaik va eskirgan so'zlar, hozirgi kundagi ismlar, joy nomlari va boshqa so'zlarning kelib chiqish etimologiyasi, bugungi tilimizda saqlanib qolgan variantlari, shu jumladan qadimgi turkiy tilda mavjud, ammo o'zbek tilida ishlatilmaydigan, ammo qardosh tillar leksikasida unumli so'zlar sirasiga kiradigan bir qancha leksemalarni uchratish mumkin. Shu jumladan bir qator olimlarimiz tomonidan Abulg'oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” hamda “Shajarayi tarokima” asarlari ham o'zbek tili tarixini o'rganish, shu jumladan o'zbek tarixiy nomshunosligini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Abulg'ozixondan ikki tarixiy asar qoldi. Bittasi "Shajarayi tarokima" (1658-1661- yillar orasida yozilgan deb tahmin qilinadi), ikkinchi asari "Shajarayi turk" (1663-1664- yillarda yozilgan) nomi bilan mashhur.

"Shajarayi turk" ning yozilish sabablari haqida muallifning o'zi bunday deydi: "Ammo bizning ota-aqalarimizning beparvoligi va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullaxonning otalari birlan bizning otalarimizning ayrilgan yeridan to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk, hech munosib kishi topmaduk, zarur boldi (va) ul sababdin o'zimiz aytduk". Asar qisqa muqaddima va to'qqiz bobdan iborat. Asar Alloh taolo Odam alayhissalomni yaratganining zikri bilan boshlanadi. Asarda Odam ato avlodlari , Muhammad alayhissalom payg'ambarimizga qadar o'tgan payg'ambarlar eslanadi, turk, mo'g'ul xalqlari tarixi so'zlanadi, Qoraxon o' g'li O'g'uzxon faoliyati haqida to'xtaladi, butun o'g'uz eli va turkman xalqining qabilaviy tarkibi, urug'larning bir- biri bilan bog'langan nuqtalari, tarixiy-etnogenezi ko'rsatib o'tiladi. "Shajarayi turk" asarida 100 dan ortiq atoqli otlar, shular jumlasidan, Allohning farishtalarining nomlari, payg'ambarlar ismlari, kishi nomlari, insonlarga qo'yilgan laqablar ham keltiriladi.

**Alloh farishtalarining nomlari:** Jabroil alayhissalom, Mekoil alayhissalom, Isrofil alayhissalom, Azroil alayhissalom.

**Payg'ambarlar ismlari:** Odam alayhissalom, Shis alayhissalom, Idris alayhissalom, Nuh alayhissalom, Yofas alayhissalom.

Asarda o'g'uz xonlarining xonlik davrlari ketma-ketlikda keltirilgan va eng birinchi Odam alayhissalomdan boshlangan.

**O'g'uz xonlarining ismlari:** Odam alayhissalom, Shis alayhissalom, Anush, Qiynan, Maxloyil, Barad, Axnux (Idris alayhissalom), Matushlax, Lamak, Nuh payg'ambar ( Nuh payg'ambar uch o'g'lini uch hududga yuboradi.) Yofas, Turk, Tutak, Qayumars (Ajam podshohi), Ablachaxon, Debboquyxon, Kuyukxon, Alanchaxon (Kuyukxonning o'g'li), Tatarxon, Buqaxon, Elanchaxon, Otlixon, Otsizxon, Urduxon, Boyduxon, Mo'g'ulxon, Qoraxon, O'g'uzxon.

Yuqoridagilar singari asarda keltirilgan nomlardan yana ko‘plab misollar keltirish, ularni hatto lug‘at singari tartib ham berish mumkin. Mo‘g‘ul xalqlarida bolaga ismidan tashqari laqab ham berilishi sabab asarda antroponimlarning soni oshgan. Shu jumladan laqablarning ko‘p qismi asosan mo‘g‘ulcha nomlar hisoblanadi.

Ba‘zi bir urug‘-qabilalar nomi bugungi kunga kelib unitib yuborilmoqda. Lekin ularning katta qismi hozirda viloyatlarimizning tarkibida joy nomlari sifatida yashab kelmoqda. O‘rganish jarayonida “Shajarayi turk” asarida etnonim sifatida o‘rganayotgan urug‘-qabilalar nomi bugungi kunda toponim sifatida uchrayotganligini kuzatamiz. Shunday etnonimlardan barlos, do‘rmon, jaloyir, mang‘it, nayman, qang‘li, qiyot, qipchoq va boshqalar kabilar misol bo‘la oladi.

**Qipchoq etnonimi:** O‘zbek urug‘laridan eng katta va asosiy qabilalardan biri qipchoq qabilasidir. Ushbu qipchoq etnonimi katta tarixga ega. Uni tadqiq qilish jarayonida uning anglatgan ma‘nosi bugungi kunga kelib o‘zgarib ketganligiga guvoh bo‘lamiz. N.A. Baskakov “Shajarayi turk” asari bilan bir qatorda “Ravzatus-safo”, “Tarixi mulki ajam” va boshqa asarlarni o‘rganish asosida qipchoq etnonimi haqida o‘z fikrini bildiradi. U qipchoq so‘zining “qipchoq” va “qipichoq” shakllarini keltirib, u daraxtning qobig‘i va qavati ma‘nosini bildirishini ko‘rsatdi.

**Arlot:** “Ikkinchi o‘g‘li Arlat. Aning ma‘nosi otaning sevar o‘g‘li, temak bo‘lur. Arlat bir kishining oti turur. Ani otasi ko‘p sevar erdi. Aning uchun Arlat dedilar. Barcha Arlat eli aning nasli tururlar”. Arlot – Chingizxon o‘g‘li Chig‘atoyga taqdim qilingan to‘rtta mo‘g‘ul qabilasidan biri. Bu qabila hozirgi Afg‘onistonning shimoliy qismida o‘rnashib qoladi. Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ham etnonim, ham toponim sifatida saqlanib qolgan. Peshku tumanida **allot**, Qorako‘l tumanida **olot** shaklida uchraydi.

**Nayman:** “Nayman elining zikri. Bu qadim el turur. Boshlari va mollari ko‘p bo‘lur erdi.”

**Nayman** – yirik qabila uyushmasi. Ko‘plab turkiy xalqlarning tarkibiga kirgan. XIX asrning 70-yillarida o‘zbek-naymanlar Zarafshon vodiysida, Farg‘ona va Xorazmda

yashagan. O‘zbek-naymanlar XIX asrning oxirida 3 ta yirik urug‘ga bo‘lingan: qo‘shnamg‘ali, sadirbek va uvoxtamg‘ali. Ushbu etnonim bugungi kunda yurtimizning ko‘pgina hududlarida toponim sifatida mavjud.

**Mang‘it etnonimi:** “Shajarayi turk” asarida uchraydigan mang‘it etnonimiga to‘xtalib o‘tsak, ushbu etnonim turkiy xalqlar tarkibidagi qadimgi etnik guruhlarining nomidir. *Mang‘it* so‘zi manbalarda “mang‘it”, “mankit”, “manqut” ko‘rinishida uchraydi.

Mang‘it etnonimi yurtimiz hududlari etnonim sifatida uchrashi bilan bir qatorda toponim sifatida ham mavjud. Xatirchi, Jondor, Ishtixon, Xo‘jaobod, Jomboy, Bulung‘ur, Qamashi, Qarshi, Chiroqchi, Xiva tumanlarida *Mang‘it* toponimi, Buxoro, G‘ijduvon, Kattaqo‘rg‘on, Peshku, Xatirchi tumanlarida *Mang‘iton*, Urgut tumanida *Mang‘itobod* toponimlari qayd qilingan.

**Bayovut:** “Bu el ko‘p urug‘ bo‘lurlar. Ammo yaxshisi va ko‘pragi ikki o‘ruq bo‘lur. Birisina Jadayin bayovut va taqi birina Makrin bayovut derlar. Jadayin va Makrin tegan aqa oqaturg‘an ikki ulug‘ suv bo‘lur. Ul suvlarning yoqasinda o‘ltururlar erdi.”

Boyovut – respublikamiz hududida qadimdan yashab kelgan urug‘lardan biri. Rashiduddinining “Jome‘ ut-tavorix”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarlarida Chingizxon qo‘shinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida ham boyovut urug‘i tilga olingan.

Boyovut “boy”, “boylar” demak. Qozoqlarning Arg‘in qabilasi tarkibida ham bayovut urug‘i qayd qilingan. Ba‘zi bir olimlar (masalan, boshqird olimi R. G. Kuzeyev) boyovut bilan bayot aslida bir qabila deb hisoblaydi. Boyovut toponim sifatida ham yurtimiz hududlarida uchraydi. Eng yorqin misol sifatida Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanini olishimiz mumkin.

**Qorluq:** “Qorluq elining zikri. Qorluq eli Mo‘g‘ulistonda berk tog‘larning ichinda yurt qilib o‘lturdilar”.

Qarluq (Qorluq) – qadimiy turk qabilalaridan. IV–VI asrlarda Sibirda yashagan, keyin bir qismi Yettisuvga ko‘chgan. VIII asr oxirida **Qarluq davlatini** barpo qilgan. X asr oxirida Movarounnahrğa – Farg‘ona va Zarafshon vodiysiga ko‘chib kelgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Zarafshonning o‘rta va quyi oqimi, Surxondaryo hududlarida yashagan. Paxtachi, Olot, Muborak, Oltinsoy, Sho‘rchi tumanlarida **Qorluq, Qorliq** qishloq nomlari mavjud.

**Qiyot :** “ Qayonning avlodi ko‘p bo‘ldi . Nukuzniki andin oz bo‘ldi . Qayon avlodina Qiyot dedilar ... Qiyot Qayonning jam‘i turur ”  
Qiyot – qadimgi turkiy qabilalardan biri . Ko‘pgina xalqlar , jumladan , o‘zbeklar , qozoqlar , qoraqalpoq tarkibiga kirgan . Qiyot etnonimi toponim sifatida ko‘p hududlarda uchraydi . Qashqadaryoning yuqori oqimida , Zarafshonning o‘rta oqimida , Xorazm vohasida yashagalar . Qorako‘l , Kattaqo‘rg‘on , Ishtixon , Bulung‘ur , Gurlan , Jomboy , Oqdaryo , Bekobod , Beshariq , Namangan , Navoiy , Shovot , Yangibozor , Narpay , Shumanay , Xo‘jayli , Qorao‘zak tumanlarida Qiyot , Qibray tumanida Qiyotariq , Qo‘ng‘irot tumanida Qiyotovul aholi punktlari bor .

Xulosa qilib aytganda , toponimla ning shakllanishida etnonimlarning ahamiyati yuqori . Etnosla ning joylashuv o‘rni ko‘p holatlarda toponimlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan . Etnonimlarni , etnotoponimlarni o‘rganish tilshunoslik uchun ham , tarix uchun ham dolzarb hisoblanadi . Toponomik areallarni tadqiq qilish etnoslarning tarqalish hududlarini aniqlashda qo‘l keladi . Tadqiqot uchun esa “ Shajarayi turk ” kabi asarlar qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Asarda keltirilgan antroponimlarning aksariyat qismi, garchi asar turkiy adabiyotlar sirasiga kirsada hozirda notanish so‘zlar. Ularni etimologik jihatdan tahlil qilish, turkcha, mo‘g‘ulcha va boshqa tillarga oid antroponimlarni ajratish nafaqat tilshunoslik, balki tarix , folklorshunoslik uchun foydali bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sh.Mirziyoyev O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq.
2. Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarayi turk \ \ Toshkent: Cho‘lpon, 1992.
3. Begmatov E. Mustaqillik va toponimiya/ O‘zbek tili va adabiyoti-2009,5-son, 9-12-b.
4. Abdimo‘minova D. "Ajdodlarni jamlagan asarlar"(A.Bahodirxonning Shajarayi turk va Shajarayi tarokima asarlari asosida).
5. Abdimo‘minova D. “Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asaridagi etnonimlar”.
6. Abduvaliyeva K. “Shajarayi turk” asaridagi ba’zi etnonimlarning hozirgi o‘zbek etnotoponimlariga munosabati”.